ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ATMOSFERA IFLOSLANISHI VA SURUNKALI NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: EPIDEMIOLOGIK TAHLILI

Yermanov Rustam Temirovich
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Epidemiologya kafedrasi assistenti[1] Samarqand O‘zbekiston.
Gulliyeva Uylduz To‘lqin qizi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Kilinik ordinator Epidemiologya kafedrasi

Annotatsiya. Atmosfera havosining ifloslanishi inson salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklarining rivojlanishida muhim xavf omili hisoblanadi. O‘zbekistonning yirik sanoat markazlari va urbanizatsiyalashgan hududlarida aholi ko‘p hollarda turli zararli gazlar, chang, sanoat chiqindilari va transport ifloslanishiga duch keladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida atmosfera ifloslanishi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi epidemiologik bog‘liqlikni tahlil qilish, xavf omillarini aniqlash va hududiy farqlarni baholashdan iborat. Tadqiqot retrospektiv va ekologik yondashuv asosida olib borildi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi statistik axborotlari, Davlat statistika qo‘mitasi, shuningdek, monitoring stansiyalarining havoning ifloslanish ko‘rsatkichlaridan olindi. Tahlilda surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi, bronxial astma va surunkali bronxit bilan bog‘liq o‘lim va kasallanish darajalari, yosh va jins bo‘yicha taqsimot hamda hududiy farqlar o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, urbanizatsiyalashgan va sanoat markazlarida surunkali nafas yo‘llari kasalliklari bilan bog‘liq o‘lim va kasallanish darajalari yuqoriroq bo‘lib, asosiy xavf omillari sifatida havoning ifloslanishi, chekish, ish faoliyati bilan bog‘liq zararli ta’sirlar va aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi aniqlangan. Shuningdek, yoshga qarab kasallanish ko‘rsatkichlari oshib boradi, erkaklarda bu ko‘rsatkich ayollarga nisbatan yuqoriroq.[1,2]

Kalit so‘zlar: Havoning ifloslanishi, Surunkali nafas yo‘llari kasalliklari, Epidemiologik tahlil, Hududiy farqlar, Sog‘liqni saqlash strategiyalari.

Abstract. Air pollution has a significant impact on human health and is an important risk factor in the development of chronic respiratory diseases. In major industrial centers and urbanized regions of Uzbekistan, the population is frequently exposed to various harmful gases, dust, industrial emissions, and transport-related pollution. The aim of this study is to analyze the epidemiological relationship between air pollution and chronic respiratory diseases in Uzbekistan, identify risk factors, and assess regional differences. The study was conducted using a

ISSN 3030-3907

retrospective and ecological approach. Data were obtained from the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, the State Statistics Committee, as well as air pollution indicators from environmental monitoring stations. The analysis included mortality and morbidity rates associated with chronic obstructive pulmonary disease (COPD), bronchial asthma, and chronic bronchitis, along with their distribution by age, gender, and region. The results showed that mortality and morbidity rates related to chronic respiratory diseases are higher in urbanized and industrial areas. The main risk factors identified include air pollution, smoking, occupational exposure to harmful substances, and limited access to healthcare services. Additionally, the incidence rates increase with age, and these indicators are higher in men compared to women.[1,2]

Keywords: Air pollution, chronic respiratory diseases, epidemiological analysis, regional differences, healthcare strategies.

Аннотация. Загрязнение атмосферного воздуха оказывает значительное влияние на здоровье человека и является важным фактором риска развития хронических заболеваний дыхательных путей. В крупных промышленных центрах и урбанизированных регионах Узбекистана население часто подвергается воздействию различных вредных газов, пыли, промышленных выбросов и загрязнений, связанных с транспортом. Целью данного исследования является анализ эпидемиологической связи между загрязнением воздуха и хроническими заболеваниями дыхательных путей в условиях Узбекистана, выявление факторов риска и оценка региональных различий. Исследование проводилось на основе ретроспективного и экологического подхода. Данные были получены из Министерства здравоохранения Республики Узбекистан, Государственного комитета по статистике, а также из показателей загрязнения воздуха, полученных с мониторинговых станций. В анализ включены показатели заболеваемости и смертности, связанные с хронической обструктивной болезнью лёгких (ХОБЛ), бронхиальной астмой и хроническим бронхитом, а также их распределение по возрасту, полу и регионам. Результаты показали, что показатели заболеваемости и смертности от хронических заболеваний дыхательных путей выше в урбанизированных и промышленных регионах. Основными факторами риска являются загрязнение воздуха, курение, вредные производственные воздействия и ограниченный доступ к медицинским услугам. Также установлено, что уровень заболеваемости увеличивается с возрастом, причём у мужчин эти показатели выше, чем у женщин.[1,2]

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Загрязнение воздуха, хронические заболевания дыхательных путей, эпидемиологический анализ, региональные различия, стратегии здравоохранения.

KIRISH.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning shahar hududlarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, transport intensivligi va urbanizatsiyalashning oshishi natijasida havoning ifloslanishi sezilarli darajada oshdi. Havoning zararli komponentlari, jumladan PM2.5 va PM10 chang zarralari, karbon monoksid, azot dioksid va oltingugurt dioksid nafas yo‘llarining surunkali kasalliklari rivojlanishida asosiy ekologik xavf omillari sifatida tan olinmoqda. Surunkali nafas yo‘llari kasalliklari, jumladan surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘K), bronxial astma va surunkali bronxit nafaqat bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy yukini ham oshiradi. Global tahlillar shuni ko‘rsatadiki, havoning ifloslanishi bilan surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasida yaqqol bog‘liqlik mavjud. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha surunkali o‘pkaviy kasalliklar tufayli o‘lim darajasi yil sayin ortib bormoqda, ayniqsa, urbanizatsiyalashgan hududlarda aholi xavfi yuqori. O‘zbekiston sharoitida ham sanoat markazlari va shahar hududlarida kasalliklar ko‘rsatkichlari qishloq hududlariga nisbatan yuqori bo‘lib, havoning ifloslanishi bilan bog‘liq ekologik risklar oshganini ko‘rsatadi. Shu sababli, hududiy epidemiologik tahlillar va ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning turli hududlarida havoning ifloslanishi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi epidemiologik bog‘liqlikni aniqlash, hududiy farqlarni tahlil qilish va kasallanish hamda o‘lim ko‘rsatkichlarini o‘rganishdan iboratdir. Bu ma’lumotlar asosida hududiy sog‘liqni saqlash siyosatiga amaliy tavsiyalar berish, profilaktika choralarini kuchaytirish va ekologik monitoring tizimini rivojlantirish mumkin.[3,4]

DOLZARBLIGI.

Surunkali nafas yo‘llari kasalliklari butun dunyoda sog‘liqni saqlash tizimining asosiy epidemiologik muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘K) va bronxial astma global o‘lim va nogironlikning yetakchi sabablari qatoriga kiradi. Xususan, urbanizatsiyalashgan hududlarda havoning ifloslanishi, transport va sanoat chiqindilari bu kasalliklarning surunkali shakllarini kuchaytiradi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sanoat markazlari va shahar hududlarida aholi sonining oshishi bilan havoning ifloslanishi ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, surunkali nafas yo‘llari kasalliklari bilan bog‘liq o‘lim darajasi va kasallanish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, bu aholining ish qobiliyati, ijtimoiy

ISSN 3030-3907

faoliyati va sifatli hayotga ta’sir qiladi. Epidemiologik kuzatuvlar O‘zbekiston sharoitida havoning ifloslanishi bilan surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi, ammo soha bo‘yicha tizimli va hududiy monitoring yetarli emas. Shuning uchun, mazkur tadqiqot dolzarb bo‘lib, u O‘zbekistonda surunkali respirator kasalliklarni oldini olish, profilaktik choralarni kuchaytirish va hududiy tibbiy resurslarni samarali taqsimlashda ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, jahon tajribasi bilan solishtirganda, O‘zbekiston sharoitida havoning ifloslanishi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi epidemiologik bog‘liqlikni aniqlash, profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash siyosatiga tavsiyalar berish imkonini beradi.[5,6]

MATERIAL VA USULLAR.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida surunkali nafas yo‘llari kasalliklari va havoning ifloslanishi o‘rtasidagi epidemiologik bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot retrospektiv va ekologik yondashuv asosida olib borildi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi statistika bazasi, Davlat statistika qo‘mitasi, shuningdek, hududiy ekologik monitoring stansiyalarining havoning ifloslanish ko‘rsatkichlaridan olingan. Shahar va qishloq hududlari, sanoat markazlari va transport zich hududlar tadqiqotning hududiy qamrovini tashkil etdi. Tadqiqot doirasida surunkali nafas yo‘llari kasalliklariga, jumladan, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘K), bronxial astma va surunkali bronxit bilan bog‘liq o‘lim va kasallanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Har bir hududda kasallanish va o‘lim darajalari yosh va jins bo‘yicha taqsimlanib, hududiy farqlar aniqlash uchun tahlil qilindi. Havo ifloslanish ko‘rsatkichlari sifatida quyidagi parametrlar ishlatildi: PM2.5 va PM10 chang zarralari konsentratsiyasi, karbon monoksid (CO), azot dioksid (NO_2), oltingugurt dioksid (SO_2), ozon (O_3) va sanoat chiqindilari bilan bog‘liq boshqa zararli gazlar. Bu ko‘rsatkichlar hududiy monitoring stansiyalari tomonidan olingan o‘rtacha yillik ma’lumotlar sifatida qabul qilindi. Epidemiologik tahlilda havoning ifloslanish darajasi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun Spearman korrelyatsiya va regresiya tahlili ishlatildi. Shu bilan birga, hududiy farqlarni aniqlash maqsadida chorak va yil bo‘yicha taqsimlangan ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar, jumladan, aholi zichligi, sanoat markazlari, transport intensivligi va sog‘liqni saqlash resurslari ko‘rsatkichlari ham tahlilga kiritildi. Tahlil davomida barcha ma’lumotlar anonim tarzda ishlatilib, shaxsiy identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlar saqlanmagan. Tadqiqot natijalari hududiy tahlil va statistik modellarga asoslanib, epidemiologik risklarni aniqlash, surunkali respirator kasalliklar bilan bog‘liq hududiy tavsiyalar

ISSN 3030-3907

ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash siyosatiga amaliy tavsiyalar berish uchun mo‘ljallangan.[7,8]

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tahlil natijalari O‘zbekistonning 2020–2025 yillaridagi epidemiologik ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. Tadqiqot hududiy jihatdan shahar markazlari, sanoat zonalari va transport zich hududlarni o‘z ichiga olgan. Havoning ifloslanish ko‘rsatkichlari va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari orasidagi bog‘liqlik Spearman korrelyatsiya tahlili bilan baholandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, havoning PM2.5 va PM10 zarralari yuqori bo‘lgan hududlarda SO‘K va surunkali bronxit bilan bog‘liq o‘lim darajasi sezilarli darajada yuqori. Masalan, Toshkent, Namangan va Farg‘ona shaharlarida PM2.5 o‘rtacha yillik konsentratsiyasi 35–45 µg/m³ ni tashkil etib, surunkali nafas yo‘llari kasalliklari bilan bog‘liq o‘lim darajasi 15–18% yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, bronxial astma bilan kasallanish ko‘rsatkichlari eng ko‘p transport zich hududlarda kuzatildi, bu havoning zararli gazlar bilan ifloslanishi bilan bog‘liq. Hududiy taqsimot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qishloq hududlarida havoning ifloslanishi nisbatan past bo‘lsa-da, sog‘liqni saqlash resurslari yetishmasligi tufayli kasalliklar diagnostikasi kechikadi va o‘lim darajasi shahar hududlariga nisbatan past, ammo real xavf yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatdiki, yosh va jins omillari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: 60 yoshdan oshgan shaxslar va erkaklar surunkali nafas yo‘llari kasalliklaridan ko‘proq aziyat chekadi, bu global trendlar bilan mos keladi. Regressiya tahlili natijalari havoning ifloslanish darajasi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni tasdiqladi ($r = 0{,}68$; $P<0{,}01$), bu O‘zbekiston sharoitida ekologik omillar kasalliklar rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Natijalar shuningdek shahar hududlarida havoning zararli komponentlarini kamaytirish, transport va sanoat chiqindilarini nazorat qilish orqali surunkali nafas yo‘llari kasalliklari oldini olish imkoniyatini ko‘rsatadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, surunkali nafas yo‘llari kasalliklarining oldini olish bo‘yicha hududiy strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu strategiyalar havoning ifloslanishini monitoring qilish, sog‘liqni saqlash resurslarini samarali taqsimlash, profilaktika va jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ekologik va tibbiy monitoring tizimini uyg‘unlashtirish, aholini sog‘lom turmush tarziga rag‘batlantirish ham muhim hisoblanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida surunkali nafas yo‘llari kasalliklari va havoning ifloslanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik sezilarli va epidemiologik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, hududiy va milliy darajada profilaktik choralar va sog‘liqni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini ta’kidlaydi.[9,10]

ISSN 3030-3907

XULOSA. Tahlillar O‘zbekiston sharoitida havoning ifloslanishi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi yaqqol bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Shahar markazlari va sanoat hududlarida havoning zararli komponentlari yuqori bo‘lgani sababli, surunkali bronxit, SO‘K va bronxial astma bilan kasallanish hamda o‘lim darajasi sezilarli darajada oshgan. Natijalar shuni ta’kidlaydiki, ekologik xavf omillarini kamaytirish, transport va sanoat chiqindilarini nazorat qilish, hududiy sog‘liqni saqlash resurslarini optimallashtirish va profilaktik choralarni kuchaytirish surunkali nafas yo‘llari kasalliklarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hududiy monitoring, aholining xabardorligi va sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish orqali kasalliklar yukini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.[11,12,13]

ADABIYOTLAR

1. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113-115.
5- Ачилова Ф. А., Жалилов А. Х. Данные эхокардиографии при малых аномалий сердца у детей //e conference zone. – 2022. – с. 136140.
2. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. O‘smirlardagi vulgar acne kassaligini kompleks davolashni ishlab chiqish va samaradorlikni aniqlash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 323-326.
3. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Xolmatovich J. A. Herpis virusini mahalliy davolash uchun vifironni qo‘llash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 349-351.
4. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Atopik dermatitli bemorlarni progressiv bosqichda mahalliy davolash samaradorligini baholash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 259-263.
5. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113115.
6. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Ijtimoiy-gigienik turshiy shartlarning o ‘quvchilar salomatligiga ta’siri //educational research in universal sciences. – 2023. – т. 2. – №. 14. – с. 314-318.
7. Islamov N. H. et al. Principles of treatment of laryngotracheitis in children //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 136-142.
8. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Development of papillomavirus infection in men //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 128-135.

ISSN 3030-3907

9. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Muradovich Y. M. O‘smirlarda yuzaki pyodermani davolashda topikal terapiya //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 355-358.
10. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Does bacterial vaginosis cause pelvic inflammatory disease? //Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 91. – №. 11. – С. 250-254.
11. Islamov N. H., Baratova M. R., Salamova L. A. Factors related to the efficiency of treatment by a doctor-dermatovenerologist and the recommended treatment of gonorrhea //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – С. 255-258.
12. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Вызывает ли бактериальный вагиноз воспалительное заболевание органов малого таза? //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 250-254.
13. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Эпидермальные паразитарные кожные заболевания как пренебрегаемая категория болезней, связанных с бедностью //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 259264.
14. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Epidermal parasitic skin diseases as a neglected category of diseases related to poverty //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – С. 259-264.
15. Исламов Н. Х., Шадыев У. Х., Саламова Л. А. Применение «Бетаметазон-Дарница» в лечении микробной экземы //Тюменский медицинский журнал. – 2011. – №. 2. – С. 50-51.

ISSN 3030-3907